



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 11 - may

136-9-0-F/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatda “Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi” doirasida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida

Viloyatda kiberjinoyatchilikni oldini olish va fuqarolarni kibertahdidlardan ogoh qilishga yo‘naltirilgan “Cyber Week” nomli kompleks profilaktik tadbirlarni tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Internet tarmog‘ida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-117-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasining 2023-yil 1-maydagi 14/K1-1067-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Internet tarmog‘ida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-117-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda kiberjinoyatlarni oldini olish hamda aholini virtual muhitdagi kibertahdidlardan ogohligini oshirish maqsadida 2023-yilning 15-may kunidan 21-may kuniga qadar “Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi (Cyber-Week)” (keyingi o‘rinlarda – haftalik deb yuritiladi) yuqori saviyada tashkil etilib o‘tkazilsin.

3. Haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlarni samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga;

haftalik doirasida tashkil etiladigan kompleks targ‘ibot-tashviqot tadbirlari rejasi 2-ilovaga;

haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tanlovlar Nizomi 3-ilovaga;

haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tanlovlar g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash bo‘yicha sovg‘alar haqida ma'lumot 4-ilovaga;

haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlarni samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman (shahar)lar namunaviy ishchi guruh tarkibi 5- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman va shahar hokimliklari bir kun muddatda mazkur farmoyishning 5- ilovasiga muvofiq haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlarni samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman (shahar)lar ishchi guruh tarkibini tasdiqlasin.

5. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (S.Djabarov) Davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oyipov), Milliy gvardiya Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi (I.Erbo‘tayev), Mudofaa ishlari boshqarmasi (B.Begabayev), Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Xaitov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Sirojiddinov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O‘.Mamadaminov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (X.Xakimov), Maktabgacha va maktab ta‘lim boshqarmasi (Sh.Xudoyqulov), Markaziy bank bosh boshqarmasi (V.To‘rayev), viloyatdagi barcha harbiy qismlar, oliy ta‘lim muassasalari, tuman va shahar hokimliklari va sektor rahbarlari bilan birgalikda:

aholi o‘rtasida bank karta kodini oshkor etish orqali pul mablag‘lari talon-toroj qilinishi, shaxsiy ma‘lumotlarni internet tarmog‘ida begona shaxslarga taqdim etish oqibatida yuzaga kelayotgan va boshqa jinoyatlarning og‘ir oqibatlaridan xabardor qilishga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borish, targ‘ibot va tashviqot materiallarini tayyorlash hamda tarqatish;

aholini kiberjinoyatlardan ogohlantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e‘lon qilib borilayotgan xabarlarini aholining barcha qatlamiga yetkazish;

Madaniyat boshqarmasi (B.Ismatov), Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi (A.Bo‘ronov) bilan birgalikda targ‘ibot tadbirlariga taniqli san‘atkorlar va sportchilarni jalb qilish;

tegishli boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda farmoyishning 3-ilovasiga muvofiq bo‘lib o‘tadigan tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish chorasini ko‘rsin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Z.Mirraximov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov), viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov)ga:

viloyat hududida o‘tkaziladigan haftalik doirasidagi targ‘ibot tadbirlari va materiallarini teleradiokanallarda, Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilib borilishi inobatga olinsin hamda viloyat miqyosidagi ommaviy axborot vositalari, shuningdek, blogerlar bilan hamkorlikda barcha internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlardagi guruh va kanallarda keng yoritib borish;

kunlik amalga oshirilgan targ'ibot ishlari keng jamoatchilik vakillariga yetkazib borish tavsiya etilsin;

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (S.Djabarov) bilan birgalikda haftalik bo'yicha matbuot anjumani va yig'ilish tashkil etsin.

7. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R.Boboyev, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov) bilan birgalikda bir kun muddatda haftalik doirasida bo'lib o'tadigan tanlovlar g'olib va sovrindorlarini taqdirlash bo'yicha 4-ilovaga muvofiq tasdiqlangan sovg'alar haqida ma'lumotga asosan talab etiladigan mablag'larni ajratish choralarini ko'rsin.

8. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R.Boboyev hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i S.Djabarov zimmasiga yuklansin.

Sirdaryo viloyati hokimi



A.Mahmudaliev

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 11 maydagi
136-9-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

**Haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlarni samarali tashkil etilishini
muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi**

TARKIBI

| T/r | F.I.Sh. | Tashkilot nomi (Lavozimi) |
|--|----------------|--|
| Ishchi guruh rahbari | | |
| 1. | S.Djabarov | Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i |
| Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosarlari | | |
| 2. | B.Inoqov | Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari |
| 3. | Sh.Zayniddinov | Sirdaryo viloyati hokimining o‘rinbosari |
| 4. | U.Mavlonov | Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari |
| Ishchi guruh a‘zolari | | |
| 5. | M.Sirojiddinov | Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i |
| 6. | A.Esonov | Sirdaryo viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i |
| 7. | Sh.Xudoyqulov | Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i |
| 8. | O‘.Mamadaminov | Kamabag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi |
| 9. | Z.Darxonov | Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi direktori |
| 10. | Sh.Raqibov | Sirdaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari |
| 11. | O‘.Xalbayev | Sirdaryo viloyati Milliy gvardiya boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari |
| 12. | A.Shayjigitov | Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari |
| 13. | A.Bo‘ronov | Yoshlar siyosati va sport vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i |
| 14. | X.Zokirov | O‘zbekiston musulmonlari idorasining Sirdaryo viloyati vakilligi rahbari |
| 15. | B.Rejepov | Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari |
| 16. | X.Abdug‘aniyev | Sirdaryo viloyati prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i |
| 17. | V.To‘rayev | Markaziy bank Sirdaryo viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| 18. | M.Tojiyev | Guliston davlat universiteti rektori |

Izoh: Ish guruh a'zolari boshqa lavozimga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 11 maydagi
136-9-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

Haftalik doirasida tashkil etiladigan kompleks targ'ibot-tashviqot tadbirlari REJASI

| T/r | Tadbir nomi | O'tkazish joyi | O'tkazish vaqti | Tadbir ishtirokchilari | Mas'ullar |
|-----|---|---|----------------------------------|--|---|
| 1. | Tadbir o'tkazilishini e'lon qilish bilan bog'liq yig'ilish o'tkazish | "Yoshlar markazi"ning majlislar zali | Dushanba 15-may soat 10:00 | Tuman va shahar sektor rahbarlari, viloyat boshqarma va tashkilot rahbarlari, OAV vakillari, jurnalist va blogerlar, matbuot kotiblari <i>100 nafar</i> | Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov), Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (B.Inoqov, U.Mavlonov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Sirojiddinov), viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxanov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov) |
| 2. | Kunlik targ'ibot bo'yicha hisobotlarini tuman va shahar ishchi guruhlar tomonidan soat 18.00ga qadar viloyat ishchi guruhiga taqdim qilish va ushbu hisobotlarni umumlashtirish | Ishchi guruh shtabi | 15-maydan 20-maygacha | Tuman va shahar ishchi guruh rahbarlari | Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (B.Inoqov), Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov) |
| 3. | "#10 ta eng yaqinim" va "#Biz bir oilamiz" xeshtegi ostida ijtimoiy tarmoqlarda chellenjlar o'tkazish | Tadbir o'tkazilayotgan joylar, ijtimoiy tarmoqlardagi guruh va kanallar | 15-maydan 20-maygacha | Ijtimoiy tarmoqlardagi guruh va kanallar foydalanuvchilari | Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Sirojiddinov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (Sh.O'rolov) |
| 4. | Ta'lim muassasalarida o'qish jarayonlariga halaqit bermagan holda kiberjinoyatlar haqida tushuncha beruvchi 5 daqiqalik videoroliklarni o'quvchi-yoshlarga namoyish etilishini ta'minlash | Viloyatdagi maktablar, oliy ta'lim muassasalari | 15-maydan 20-maygacha | Maktab o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari <i>150.000 nafar</i> | Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (Sh.Xudoyqulov), Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari |
| 5. | Aholini kiberjinoyatlardan ogohlantirish bo'yicha blogerlar o'rtasida " Eng yaxshi kontent " tanlovini o'tkazish | IT-park | 18-may soat 16:00 | OAV vakillari, jurnalist va blogerlar 50 nafar | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov), viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxanov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Sirojiddinov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (U.Mavlonov) |
| 6. | IT-park hamda IIV Kiberxavfsizlik markazi o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumini imzolash | IT-park | 19-may soat 16:00 | IT-park, IIV Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimlari <i>10 nafar</i> | IT-park (lavozimiga ko'ra), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (B.Inoqov) |
| 7. | Targ'ibot tadbirlarini ta'sirchanligini oshirish maqsadida masjidlarda imom-xatiblar tomonidan aholiga tashviqot ishlarini olib borish | Viloyatdagi barcha masjidlar | 19-may | Masjidga boruvchi aholi vakillari, imom-xatiblar | Viloyat hokimligi (I.Muminov), O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi rahbari (X.Zokirov), viloyat IIB (A.Latipov) |
| 8. | Ta'lim muassasalaridagi yoshlar, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi " Eng yaxshi monolog ", " Eng yaxshi insho ", " Eng yaxshi she'r " tanlovlarini o'tkazish | IT-park | 20-may soat 10:00 | Maktab o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, ijodkorlar | Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (Sh.Xudoyqulov), Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Sirojiddinov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (U.Mavlonov) |

| | | | | | |
|-----|--|---|-----------|--|---|
| 9. | Tibbiyot xodimlari o'rtasida "Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanaman" shiori ostida aholini ogohlikka chaqiruv aks etgan qisqa videoroliklar tanlovini o'tkazish | Viloyatdagi tibbiyot muassasalari | 15-20-may | Viloyatdagi tibbiyot muassasalari shifokorlari, hamshiralari | Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov), Sog'liqni saqlash boshqarmasi (X.Xakimov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (U.Mavlonov) |
| 10. | Mahallalar o'rtasida kiberjinoatlarga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi "Eng yaxshi mahalla" tanlovini o'tkazish | Viloyatdagi barcha mahallalar | 15-20-may | Viloyatdagi barcha mahallalarning raislari, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotinqizlar bo'yicha rais o'rinbosarlari qatnashadi | Viloyat hokimligi (Sh.Zayniddinov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (Sh.O'rolov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Mamadaminov) |
| 11. | Masjidlarda juma kungi ma'ruzalarda bank kartalaridagi pullarni talon-toroj qilish va kiberjinoatlardan ogohlantirish bo'yicha aholiga tushuntirishlar berilishini ta'minlash | Barcha jome masjidlarida | 19-may | Barcha jome masjidlarining imom xatiblari, juma namoziga qatnashuvchi fuqarolar | Viloyat hokimligi (I.Muminov), O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi rahbari (X.Zokirov), Viloyat IIB (A.Latipov) |
| 12. | Masjidlar atrofida targ'ibot materiallarini joylashtirish, aholiga flayerlarni tarqatish | Barcha jome masjidlarida | 15-20-may | Barcha jome masjidlarining imom xatiblari, masjidlarga qatnashuvchi fuqarolar | Viloyat hokimligi (I.Muminov), O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi rahbari (X.Zokirov), Viloyat IIB (A.Latipov) |
| 13. | Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan diniy soha vakillari tomonidan fuqarolarni kiberjinoatlardan ogohlantirish, uning salbiy oqibatlarini va shariy hukmlarini tushuntirish | Ijtimoiy tarmoqlarda | 15-20-may | Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan diniy soha vakillari | Viloyat hokimligi (I.Muminov), O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakilligi rahbari (X.Zokirov), Viloyat IIB (A.Latipov) |
| 14. | Viloyatda san'atkorlik bilan shug'ullanuvchi mashhur fuqarolarni tadbirlar jarayonida ishtirok etishini ta'minlash | Tadbir o'tkazilayotgan joylar, ijtimoiy tarmoqlardagi guruh va kanallar | 15-20-may | Viloyatdagi mashhur san'atkorlar | Viloyat hokimligi (Sh.Isakulov), Madaniyat boshqarmasi (B.Ismatov) |
| 15. | Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamli targ'ibot tadbirlarini olib borish | Oliy ta'lim muassasalari | 15-20 may | IIB xodimlari, OTM rahbariyati, o'qituvchi va tahsil oluvchi talabalar | Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (Sh.Xudoyqulov), Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari |

Izoh: Barcha tadbirlar IIV Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimlarining tajribasidan foydalanib, ular bilan kelishilgan holda tashkillashtiriladi va o'tkaziladi. Biriktirilgan mas'ul rahbar tadbirni o'tkazishga, tanlov g'olib va sovrindorlarini **shaffoflik tamoyili** asosida aniqlanishiga **shaxsan javobgar** hisoblanadi. Tanlovlar g'olib va sovrindorlarini aniqlashda Kiberxavfsizlik markazining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalaridan foydalaniladi.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 11 maydagi
136-9-0-F/23-son farmoyishiga
3-ilova

Haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tanlovlar

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Sirdaryo viloyati bo‘yicha kiberjinoyatlarga qarshi kurashish va kiberxavfsizlikni ta‘minlash, aholini virtual muhitdagi kibertahdidlardan ogoh qilish hamda aholining raqamli va huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan **“Eng yaxshi kontent”**, **“Eng yaxshi monolog”**, **“Eng yaxshi insho”**, **“Eng yaxshi she‘r”** tanlovlari va Tibbiyot xodimlari o‘rtasida **“Internet tarmog‘idan xavfsiz foydalanaman”** shiori ostida aholini ogohlikka chaqiruv aks etgan qisqa videoroliklar tanlovi hamda mahallalar o‘rtasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni targ‘ib qiluvchi **“Eng yaxshi mahalla”** tanlovini o‘tkazish ni (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da va Sirdaryo viloyati hokimining farmoyishiga asosan o‘tkazilayotgan **“Cyber Week”** kompleks profilaktik tadbirlari doirasida ko‘rsatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi.

3. Ushbu Tanlov aholi orasida kibertahdidlarga nisbatan mustahkam immunitetni shakllantirish va Sirdaryo viloyatida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlari qurbonlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

4. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti, Kiberxavfsizlik markazi, Sirdaryo viloyati hokimligi, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Guliston shahridagi IT-park hamda viloyatdagi barcha oliy ta‘lim mussasalari hamkorligida tashkil etiladi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

5. Vatanimizda va jahonda insonlarga ko‘rinmas yov kabi xavf solib turgan kiberjinoyatlar hozirgi kunda qarshi turish eng qiyin bo‘lgan hamda borgan sari

ko‘lami kengayib borayotgan jinoyat turidir. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, insonlarda kiberxavflarga nisbatan immunitetni shakllantirish, aholi o‘rtasida ushbu jinoyatning turlari va usullari haqida keng targ‘ib qilish, ularning siyosiy-huquqiy ongini yuksaltirish maqsadida tashkil etiladi.

III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

6. “Eng yaxshi kontent”, “Eng yaxshi monolog”, “Eng yaxshi insho”, “Eng yaxshi she’r” tanlovlari bo‘yicha:

6.1. “Eng yaxshi monolog” hamda “Eng yaxshi she’r” tanlovlarida yoshidan qat’iy nazar Sirdaryo viloyatining barcha aholisi o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etishi mumkin.

6.2. “Eng yaxshi insho” tanlovida faqatgina umumta’lim maktablari o‘quvchilari ishtirok etishi mumkin.

6.3. Tanlov haqida ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon beriladi. Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan xohlovchilar istalgan 3 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘zlarining ijod namunalarini maxsus joriy qilingan Telegram-bot orqali (tanlov e’lonida bot ko‘rsatiladi) yuboradi.

6.4. Ijodiy ishlar tanlov maqsadidan kelib chiqqan holda kiberjinoyatga qarshi kurash, insonlarni ogohlikka chaqirish, bu jirkanch jinoyat va uning ayanchli oqibatlarini, u bilan qanday kurashish kabi mavzularda bo‘lishi lozim.

6.5. Hakamlar hay’ati tomonidan har bir ijodiy ish 50 ballik mezonda baholanadi. Eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan ishtirokchilar g‘olib va sovrindor deb topiladi.

6.6. “Eng yaxshi monolog”, “Eng yaxshi she’r” hamda “Eng yaxshi insho” yo‘nalishlarining har biridan 1-2-3-o‘rin sohiblari aniqlanadi.

7. Blogerlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi kontent” tanlovi bo‘yicha:

7.1. Tanlovda yoshi va jinsidan qat’iy nazar Sirdaryo viloyatining barcha aholisi o‘zlarining ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy akkauntlari, guruhlar va kanallari orqali kiberjinoyatlarni oldini olish, aholini ogohlikka chaqirishga, kiberxavfsizlik haqidagi savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi kontentlari bilan ishtirok etishlari mumkin.

7.2. Tanlov haqida ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon beriladi. Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan blogerlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar o‘zlari joylagan kontent havolasini Telegram-bot orqali

(tanlov e'lonida bot ko'rsatiladi) yuboradi.

7.3. Kontent tanlov maqsadidan kelib chiqqan holda kiberjinoyatlarni oldini olish, aholini ogohlikka chaqirishga, ularning kiberxavfsizlik haqidagi savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi kontentlar bo'lishi lozim.

7.4. Maxsus komissiya tomonidan ushbu tanlov uchun tashlangan 15 ta videorolik tanlab olinib, ular Telegram-bot orqali ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari tomonidan **ovoz berish** orqali baholanadi. Eng yuqori ko'rsatkichga erishgan ishtirokchilar g'olib va sovrindor deb topiladi.

8. Tibbiyot xodimlari o'rtasida "Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanaman" shiori ostida aholini ogohlikka chaqiruv aks etgan qisqa videoroliklar tanlovini bo'yicha:

8.1. Tanlovda Sirdaryo viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi Tibbiyot muassasalarida ish faoliyatini olib borayotgan xodimlari kiberjinoyatlarni oldini olish, aholini ogohlikka chaqirishga, kiberxavfsizlik haqidagi savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi "Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanaman!" shiori ostida shaxsan o'zlari ishtirokida suratga olingan videorolik bilan ishtirok etishlari mumkin.

8.2. Tanlov haqida ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon beriladi. Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan tibbiyot xodimlari o'zlari suratga olgan videoroliklarini maxsus Telegram-bot orqali (tanlov e'lonida bot ko'rsatiladi) yuboradi.

8.3. Tanlov maqsadidan kelib chiqqan holda kiberjinoyatlarni oldini olish, aholini ogohlikka chaqirishga, ularning kiberxavfsizlik haqidagi savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi videorolik bo'lishi lozim.

8.4. Maxsus komissiya tomonidan ushbu tanlov uchun tashlangan 15 ta videorolik tanlab olinib, ular Telegram-bot orqali ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari tomonidan **ovoz berish** orqali baholanadi. Eng yuqori ko'rsatkichga erishgan ishtirokchilar g'olib va sovrindor deb topiladi.

9. Mahallalar o'rtasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi "Eng yaxshi mahalla" tanlovi bo'yicha:

9.1. Tanlovda Sirdaryo viloyatidagi barcha mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari ishtirok etgan holda o'zlarining yashash hududidagi aholini qay darajada targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borganligi va qancha fuqarolarni IIV TQD Kiberxavfsizlik markazi tomonidan ochilgan ijtimoiy tarmoqlardagi "Cyber102"

kanallariga doimiy xabardor bo‘lib borayotganliklari ko‘rsatkichi bilan ishtirok etishlari mumkin.

9.2. Tanlov haqida ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida e‘lon beriladi. Tanlovda avtomatik ravishda Sirdaryo viloyatidagi barcha mahalla va qishloq fuqarolik yig‘inlari aholisini targ‘ibot ishlaridan xabardor qilinib borilayotganligi maxsus Telegram-bot orqali hisobga olinib boriladi.

9.3. Tanlov maqsadidan kelib chiqqan holda kiberjinoyatlarni oldini olish, aholini ogohlikka chaqirishga, ularning kiberxavfsizlik haqidagi savodxonligini oshirish uchun mahallada yashovchi barcha xonadonlarda “Cyber102” platformasi bilan tanishib borish tavsiya etilishi yuzasidan targ‘ibot ishlarini olib borishlari lozim.

10. Tanlovning g‘olibi va sovrindorlariga mazkur farmoyishning 4-ilovasida ko‘rsatilgan qimmatbaho sovg‘alar bilan tantanali ravishda OAV jalb qilingan holda rag‘batlantiriladi.

11. Hakamlar hay‘ati tarkibiga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi mas‘ul xodimi;

- Sirdaryo viloyati hokimligi mas‘ul xodimi;

- Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi mas‘ul xodimi;

- Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi mas‘ul xodimi;

- Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi mas‘ul xodimi;

- Guliston shahridagi IT-park mas‘ul xodimi;

- Guliston davlat universiteti mas‘ul xodimi;

- Maktabgacha va maktab ta‘lim boshqarmasi mas‘ul xodimi;

- O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi mas‘ul xodimi.

12. Hakamlar hay‘ati tomonidan qabul qilingan qarorga norozi bo‘lgan ishtirokchilar o‘sha kunning o‘zida Tanlov tashkiliy qo‘mitasiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 11 maydagi
136-9-0-F/23-son farmoyishiga
4-ilova

**Haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tanlovlarning g‘olib va sovrindorlarini
taqdirlash bo‘yicha sovg‘alar haqida
MA'LUMOT**

| T/r | Sovg‘a nomi va modeli | Soni |
|--|--|------|
| Kiberjinoyatlarga oid “Eng yaxshi monolog”, “Eng yaxshi she’r”, “Eng yaxshi insho” tanlovlari uchun | | |
| 1. | Planshet – Xiaomi Pad 5 8/256 GB | 3 |
| 2. | Smartfon – Xiaomi Redmi A1+ | 3 |
| 3. | Smart-soat – Xiaomi Amazfit Bip 3 Pro | 3 |
| Bloggerlar o‘rtasida “Eng yaxshi kontent” tanlovi uchun | | |
| 4. | Planshet – Xiaomi Pad 5 8/256 GB | 1 |
| 5. | Smartfon – Xiaomi Redmi Note 11 Pro | 1 |
| 6. | Smartfon – Xiaomi Redmi A1+ | 1 |
| Tibbiyot xodimlari o‘rtasida “Internet tarmog‘idan xavfsiz foydalanaman” shiori ostidagi tanlov uchun | | |
| 7. | Smartfon – Xiaomi 11 Lite 5G NE 8/256 GB | 1 |
| 8. | Smartfon – Xiaomi Redmi A1+ | 1 |
| 9. | Smart-soat – Xiaomi Amazfit Bip 3 Pro | 1 |
| Mahallalar o‘rtasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni targ‘ib qiluvchi “Eng yaxshi mahalla” tanlovi uchun | | |
| 9. | Smartfon – Xiaomi 11 Lite 5G NE 8/256 GB | 5 |
| 10. | Smartfon – Xiaomi Redmi A1+ | 5 |
| 11. | Smart-soat – Xiaomi Amazfit Bip 3 Pro | 5 |

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 11 maydagi
136-9-0-F/23-son farmoyishiga
5-ilova

**Haftalik doirasida bo‘lib o‘tadigan tadbirlarni samarali tashkil etilishini
muvoqlashtirish bo‘yicha tuman (shahar)lar namunaviy ishchi guruhi
TARKIBI**

| T.r. | F.I.Sh. | Tashkilot nomi (Lavozimi) | Izoh |
|--|----------------|---|-------------|
| Ishchi guruh rahbari | | | |
| 1. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar IIB boshlig‘i | |
| Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosarlari | | | |
| 2. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar IIB boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari | |
| 3. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari | |
| 4. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar IIB boshlig‘ining o‘rinbosari (<i>JXX</i>) | |
| Ishchi guruh a‘zolari | | | |
| 5. | <i>F.I.Sh.</i> | Yoshlar ishlari agentligi tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 6. | <i>F.I.Sh.</i> | Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasining tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 7. | <i>F.I.Sh.</i> | Sog‘liqni saqlash boshqarmasining tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 8. | <i>F.I.Sh.</i> | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 9. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar soliq bo‘limi | |
| 10. | <i>F.I.Sh.</i> | Milliy gvardiya boshqarmasining tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 11. | <i>F.I.Sh.</i> | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman va shahar bo‘limi rahbari | |
| 12. | <i>F.I.Sh.</i> | Tuman va shahar prokuraturasi | |